



XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA VILOYATI DANG'ARA TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil «14» - avgust

VI-81-85-11-155-K/23

Dang'ara tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-408-sonli xamda 2022-yil 30-dekabr kungi 465-sonli qarorlarining tumandagi ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-408-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-noyabrdagi “Mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha belgilangan loyihiilar ijrosini nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi KQ-423-IV-sonli xamda 2022-yil 30-dekabr kungi 465-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan tuman hokimining o'rribbosari T.Salimovning 2023-yil 6 oyida amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotini muhokama qilib, O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining o'rribbosari T.Salimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-408-sonli xamda 2022-yil 30-dekabr kungi 465-sonli qarorlarining tumandagi ijrosi yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman xokimining o'rribbosari T.Salimovga yuqoridagi qarorga asosan Tumor qishlog'ida tortilayotgan ichimlik suvi tarmoqlarini 2023-yil 1-oktyabr xolatiga qadar to'liq tugatilishini ta'minlash xamda Naymancha MFY Navro'z ko'chasida mavjud rekonstruksiya qilingan quduqdan tortilgan tarmoqqa ulash vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman sektorlari rahbarlari, tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rribbosari T.Salimov tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-408-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida amalga oshirish choralarini ko'rish;

yo'naliishlar bo'yicha ishlarni sifatli bo'lishini ta'minlash yuzasidan turli soha

vakillaridan iborat mutaxassislarni jalg etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

kommunikatsiya tizimlarini o‘tkazishda aholi murojaatlari va takliflarini inobatga olgan holda MFYlar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish;

barcha loyihalar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har oyda tuman Kengashiga hisobot taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokiminining o‘rnbosari T.Salimovlar zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



Sh.Tojixakimov